



ALISHER NAVOIY - QOMUSIY IJODKOR

Наргиза Муртозаева Касби туман 58- мактаб она тили ва адабиёт фани
ўқитувчиси

Нигора Гофурова Низомий номидаги Ўзбекистон Миллий педагогика
университети талабаси

Annotatsiya

Alisher Navoiy xalqimizning boy tarixida butun bir davrni tashkil etadigan buyuk shaxs, millatimiz g'ururini dunyoga tanitgan o'lmas so'z san'atkoridir. Alloma ijodining ko'lamini poyonsiz. Uning asarlarida ijtimoiy – siyosiy masalalar ham, odob – axloq qoidalari ham, ilohiy va majoziy ishq masalari ham keng yoritilgan.

Navoiy ijodini samoga mengzalsa, “Xamsa”, shubhasiz, samodagi eng yorqin yulduzdek. Unda axloq, siyosat, ijtimoiy masalalar dalillar asosida ta'riflab berilgan.

Kalit so'zlar: Ota – onaga hurmat, ustoz – shogird munosabatlari

Ona diyorimiz azaldan buyuk allomalarga beshik bo'lib kelgan. Butun dunyoga dovrug' taratgan, dunyo ilm – fani rivojiga ulkan hissa qo'shgan allomalar: Abu Rayhon Beruniy, al - Xorazmiy, Ibn Sino... Bu ro'yxatni istagancha davom ettirish mumkin. Ammo bu ro'yxatda shunday buyuk zot borki, uni nafaqat musulmon dunyosi, Sharq xalqlari, balki, butun dunyo ahli hurmat bilan tilga oladi. Bu, Maqsud Shayxzoda ta'riflagan “G'azal mulkining sultoni” - Alisher Navoiydir. Bu buyuk zot o'rta asrlar tarixida o'z nomini zarhal harflar bilan yozib qo'ygan, ilm – fanning turli sohalaridagi boy bilimlari durdonalarini o'z asarlarida ifodalagan.

Alisher Navoiy 1441 – yil 9 – fevralda Hirot shahrida tug'ildi. Alisher 13- 14 yoshligida otasi G'iyosiddin vafot etgach, u Abulqosim Bobur saroyiga boradi. Abulqosim Bobur uning tarbiyasiga alohida ahamiyat beradi. Biroq 1457 – yilda Abulqosim Bobur vafot etgach Mashhadda madrasalarda o'qiy boshlaydi. 7 yillik tehsil davomida Sayyid Hasan Ardasher Kamol Turbaty kabi olimlar bilan tanishdi. 1466 – 1469 – yillarda yosh shoir Samarqand madrasalarida tahsil oldi. 1469 – yilda Husayn Boyqaro Hirot taxtini egallagach shoirni yoniga chaqirib oladi va ulug' qalam sohibi uzoq yillar davomida Husayn Boyqaro saroyida oliy martabali lavozimlarda ishladi. U buyuk amallardan iste'foga



chiqib, erkin ijodiy ishlar bilan mashg'ul bo'lgan kezlarida ham ijtimoiy – siyosiy faoliyatdan chetlashgan emas. Unga Husayn Boyqaro “Muqarrabi shohiy”, ya’ni shohning eng yaqin kishisi martabasini bergan edi. Bu sharaflı martabaning hukmdor oldidagi imtiyozi shu ediki, u podshohga bir masala yuzasidan ketma – ket yetti martagacha murojaat qilish huquqiga ega edi. Umrining so’nggi yili mobaynida ham Navoiy juda ko’p badiiy, ilmiy, tarixiy asarlar yaratdi. E. Bertelsning fikricha, “Navoiy... donishmand siyosiy arbob, yirik olim, matafakkir, rassom, musiqashunos, tengi yo’q so’z ustasi. Madaniyatning unga begona biror sihasi topilmaydi. Shekspir, Gyote, Pushkin kabi geniylargina shunday ko’p qirralikka ega bo’lganlar”.

Bu ulug’ zot 1501 – yilning 3 – yanvar kuni HIrotda vafot etdi. O’sha kuni butun mamlakat motam tutdi. O’zbekiston Hukumati bobokalon shoirimiz qabrini obod qilish rejasini tuzyapti. 1991 – yilning 26 – sentyabr kuni mamlakatimiz poytaxtidagi O’zbekiston Milliy bog’ida Alisher Navoiyning ulug’vor haykali qad rostladi. Xalqimiz vakillari, dunyoning turli mamlakatlaridan kelgan mehmonlar shior haykali poyiga guldasta – yu gulchambarlar qo’yadi.

Zahiriddin Muhammad Bobur to’g’ri ta’kidlaganidek, tarixda hech kim turkiy tilda Navoiychalik “ko’p va xo’p” asarlar yozgan emas.

O’zbekiston Respublikasi Birinchi Prezidetni Islom Abdg’ug’aniyevich Karimovning “Yuksak ma’naviyat – yengilmas kuch” asarida Alisher Navoiy haqida shunday deyilgan: “Agar bu zotni avliyo desak, u avliyolarning avliyosi, mutafakkir desak, mutafakkiirlarning mutafakkiri, shoir desak, shoirlarning sultonidir”.

Navoiy – lirik shoir. 1472 – 1476 – yillarda o’zining ilk devoni – “Badoyi ul - bidoya”ni tuzadi. 1486 – yilda shoir o’zining ikkinchi devoni “Navodir un - nihoya” ni – Behad nodirliklarni tuzdi.

Navoiy 1493 – yilda forsiyda bitilgan barcha lirik she’rlarini yig’ib , “Devoni Foni”ni tartib berdi. Chunki shoir fors – tojik tilidagi lirik she’rlarida “Foni” taxallusini qo’llagan. Bu devonda jami 554 ta g’azal mavjud.



1491 – 1492 – yildan e'tiboran shoir barcha turkiy tildagi she'rlarini yig'ib, to'rt devondan iborat “Xazoyin ul - maoniy” majmuasini tuzishga kirishdi. Bu keng ko'lamli va jiddiy ish 1498 – 1499 – yillargacha davom etdi. “Xazoyin ul – maoniy”dagi har bir devonga alohida – alohida nom berilgan:

1. “G'aroyib us – sig'ar”(Bolalik g'aroyibliklari).
2. “Navodir ush - shabob” (Yigitlik nodirliklari).
3. “Badoye' ul - vasat” (O'rta yosh yangiliklari).
4. “Favoyid ul - kibar” (Qarilik foydalari).

Navoiy bundan tashqari ilmiy asarlar ham yaratgan. Bu uning bilimli va salohiyatli tilshunos va adabiyotshunos ham bo'lganidan dalolat beradi. Navoiyning “Muhokamat ul – lug'atayn”(Ikki til muhokamasi) va “Mezon – ul avzon” asarlari bugun ham o'z ahamiyatini yo'qotmaganini ta'kidlash kerak. Umuman, Navoiy nafaqat lirik shoir, balki, qomusiy olim hamdir. Uning tilshunoslik, adabiyotshunoslik, mantiq, musiqaga oid asarlari allomaning buyuk iste'dodidan darak beradi.

Ta'bir joiz bo'lsa, olamda turkiy va forsiy tilda so'zlovchi biror inson yo'qki, Navoiyni bilmasa, Navoiyni sevmasa, Navoiyga hurmat bilan qaramasa. Chunki Navoiyni bilish - o'zlikni bilish, Navoiyni sevish – millatni sevish, Navoiyga sadoqat – eng ezgu insoniy qadriyatlarga sadoqat demakdir.

Alisher Navoiyning asarlarida axloqiy – ta'limiy, ijtimoiy – falsafiy masalalar keng yoritilgan. Mubolag'a bo'lmasa hayotning barcha sohalari adib asarlarida qalamga olingan.

1483 - 1485 – yillari shoirning eng buyuk asari – besh dostonidan iborat “Xamsa” yaratildi. “Xamsa”ning birinchi dostoni bo'lmish “Hayrat – ul abror”da Navoiy o'zining falsafiy, ijtimoiy – siyosiy, axloqiy qarashlarini aks ettirdi. Odamiylikka va inson uchun qayg'urishga chaqirish bu dostonning asosiy g'oyasidir.

“Hayrat- ul abror”... o'ziga xos falsafiy – didaktik doston bo'lib, zamonasining ijtimoiy – siyosiy masalalarini va shoirning ijtimoiy axloq to'g'risidagi qarashlarini,



muho-kamalarini ifodalaydi”. Jumladan, ota- onaning farzand hayotidagi o’rni va farzandning ota – ona oldidagi burchi haqida shunday yozadi:

Boshni fido ayla ato qoshig’a

Jismni qil sadqa ano boshig’a...

Tun kuningga aylagali nur fosh,

Birisin oy angla, birisin quyosh.

Ota – onaning farzand tarbiyasidgi orni haqida hech bir ijodkor bundan ortiq ta’rif berolmasa kerak. Olam uchun oy bilan quyosh qanchalik ahamiyatga ega bo’lsa, farzand uchun ota – ona ham shunday qimmatlidir.

Ustoz va shogird munosabatlari xususida so’z yuritir ekan, “Haq yo’lida kimki mashaqqat chekib, senga birgina harf o’rgatgan bo’lsa yuz xazina boylik bilan ham uning haqini ado etolmaysan”, deydi.

Haq yo’lida kim senga bir harf o’qitish ranj ila

Aylamak bo’lmas ado oning haqin yuz ganj ila.

Darhaqiqat, ustozning maqomi buyuk, uni hech narsa bilan tenglashtirib bo’lmaydi. Ustoz oldidagi shogirdning qarzin ham ikki dunyoda uzib bo’lmaydi. Ustoz otangday ulug’ degan maqol bor. Bir donishmand bu maqolni sharhlab shunday degan ekan: “Otam meni ko’kdan yerga tushirdi, ustozim esa yerdan ko’kka ko’tardi”. Yer yuzidagi barcha jonzot Allohning yaratig’i, inson esa bu yaratilarning gultoji. Insonning hayotdagi o’rni qanday bo’lishi kerakligi Navoiy ijodida har doim yetakchi mavzu bo’lib kelgan. Inson hamisha odamlar g’ami bilan yashashi kerak:

Odami ersang demagil odami

Onikim yo’q xalq g’amidin g’ami.

Zero, Navoiyning o’zi butun umr shu aqida bilan yashagan.

Navoiy ijodini o’rganib, ichiga chuqurroq kirib borganimiz sayin uni qanchalik kam bilishimiz ma’lum bo’laveradi. Bu borada qancha izlansak, qancha o’rgansak shuncha kam.



Biz ana shunday buyuk insonlarning avlodimiz. Bizning bobokalonlarimiz dunyo ilm – fani ustunlari bo'lishgan. Mamlakatimiz istiqloli sabab bizga berilayotgan imkoniyatlardan unumli foydalanib, fan cho'qqilarini egallashga intilishimiz zarur.

“Tarixsiz kelajak yo'q”, ammo faqat tarix bilan g'ururlanishning o'zi kamlik qiladi. Ana shu g'ururni faxrga aylantirishimiz zarur. Shunday ekan, biz yoshlar bilim va salohiyatimizni ona yurtimiz kelajagini ta'minlash uchun sarflashimiz zarur. Ana shundagina buyuk ajdodlarimizga munosib voris bo'la olamiz.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. Adabiyot.V sinf. Toshkent. “Sharq” nashriyoti. 2015 – yil.
2. “Milliy istiqlol g'oyasi va ma'naviyat asoslari” . VIII sinf. “Ma'naviyot” nashriyoti. 2015 – yil.
1. “Yuksak ma'naviyat – yengilmas kuch”. I.A.Karimov. Toshkent. “Ma'naviyat” nashriyoti. 2013 – yil.
2. “Alisher Navoiy hayoti va ijodi” . Olim Sharafiddinov

Nargiza Murtozayeva Kasbi tumani 58 – maktab ona tili va adabiyot fani o'qituvchisi
Nigora G'ofurova Nizomiy nomidagi Milliy pedagogika universiteti talabasi